



БЕHBUDIYNING “BIZNI KEMIRUVCHI ILLATLAR” MAQOLASI ASOSIDA PEDAGOGIK YONDASHUV TAHLILI

Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna

O’zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti o’qituvchisi

Xudoyorova Dinora Farhod qizi

O’zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mahmudxo’ja Behbudiyning “Bizni kemiruvchi illatlar” tanqidiy maqolasi asosida to’y, hasham, azo va boshqa tadbirlarimizdagi ortiqcha dab-dababozliklar haqida qisqacha fikrlar keltirilib pedagogik yondashuvlar asosida bu kabi illatlarni oldini olish yo’llari haqida qisqacha so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: bilim, ma’rifat, ta’rix, tamaddun, bashariyat, milliy an’ana, urf-odat, savodsizlik, yoshlar tarbiyasi, kemiruvchi illatlar, Ona Vatan, oila, yaqinlar mehri, Behbudiyy, jadid, qo’shma Qaror, mustaqillik,

Azaldan bizgacha yetib kelyotgan ko’plab urfu odatlarimiz, an’analarimiz buyuk tamaddunimizdan darak beruvchi omil sifatida xizmtat qiladi. Biroq har bir narsaga me’yor bo’lgani kabi agarda sharqona urf-odatlarimiz deb atalmish an’analarimizning me’yorida o’tkazsak va asrab ularni kelajak avlodga har xil gardlarsiz yetkazib berish har birimizning burchimizdir. Milliy, xalqona urf-odatlar har bir millatning yashash tarzi yo xud etnografiyasidan shahodat beradi. Bugungi kunda haddan tashqari dabdababozlik, isrofgarchilikka sabab bo’layotgan to’yu marakalarimiz va boshqa tadbirlarimiz kundan-kunga “rivojlanmoqda”. Bu mavzu bugun emas balki yuz yillar oldin ham olimu fuzalolarimiz jumladan, Turkiston jadidchilik harakatining yetakchi namoyandasini bo’lmish Mahmudxo’ja Behbudiyaning tanqidiga sabab bo’lgan mavzulardan biridir. Boisi shu kabi bema’niliklar orqasidan oddiy xalq jabr ko’rayotgani, millat



farzandlarining musofir yurtlarda mablag' ishlash ilinjida Ona Vatan, oila, yaqinlar mehridan uzoqda faoliyat ko'rsatayotgani barchamizga ayon.

Turkiston jadidlarining otasi nomiga sazovor bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy 1887-yili Smarqandda tug'ilgan. Pedagog, olim, publisist, drammaturg, yozuvchi sifatida ko'plab asarlar va maqolalar muallifi Mahmudxo'ja Behbudiyning "Bizni kemiruvchi illatlar" maqolasi orqali mazkur mavzu asosida tanqidiy nuqtayi nazaridan qalam tebratgan. "Bizni kemiruvchi illatlari" maqolasi 1915-yil "Oyna" jurnalining 13-sonida nashr ettirilgan. Maqolada, avvalo bizni kemiruvchi illatlar nimalar ekanligi bayon etilgan. Unda shunday deyilgan: "Bizni kemiruvchi illatlar deganda, zaxm-u maraznimi gumon etarsiz? Yoinki, sil, silariya (o'pka sili) va maxavliknimi dersiz? Yo'q, andan ham yamonroq va andan ham jonxarosh (jon azobi), bevoya, xonavayron va g'arib etguvchi bir dard, biz – turkistoniyarni shahri va qishloqi yoinki yarim madaniy, yarim vahshiy sinflarimizg'acha istilo etib, butun tirikligimizg'a sorilgan va bizni inqirozg'a va tahlikag'a va jahannamg'a yumalaturg'on to'y, azo ismindagi ikki qattol dushmanni derman". Mavzu bugun ham dolzarbliji bilan go'yoki Behbudiy ham bizni zamondoshimiz, va uning tanqidlari bugun ham asosli. Maqolada o'z davri uchun va bugungi kun uchun ham muhim bo'lgan masalalar haqida fikr yuritilgan.

Shukronalar bo'lsinki istiqlol bizga azaliy ota bobolarimizdan meros urf odatlarimizga erkin amal qilish imkonini berdi. Shu o'rinda azaldan to'y-tomosha oshuftasi o'zbek xalqining to'y marosimlari bilan bog'liq an-a'nalari hamda rasm-rusmlari faqatgina xursandchilik va shodiyonalik bo'libgina qolmasdan, balki, muayyan maqsadga qaratilgan, asrlar davomida rioya qilinib kelinayotgan diniy udumlar majmui hamdir. To'y-bashariyat aql zakovati, tabiiy, ma'naviy-axloqiy va huquqiy-ijtimoiy ehtiyojlari, talablari asosida vujudga kelib, uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tib, hozirgi kunimizgacha yetib kelgan va istiqbolda ham ma'naviy qadriyatlarimiz tarkibida mustahkam saqlanib keladigan noyob hayotiy marosimlar majmuidir. Ammo uni kundan-kunga "rivojlantirish", turli begona



odatlarni qo'shish hej qandayday na'f keltirmasligi barchamizga ayon. Agarda biz dabdabali to'ylar qilish, bu to'ylarni o'tkazishda yillar dvomida yig'iladigan mablag'larni farzandlarimizning kelajagi uchun sarmoya qilsakda farovon turmush tarzini yaratishga ko'maklashsak nazarimda yaxshiroq bo'lar. Behbudiy ta'biri bilan aytganda "To'y va ta'ziyaga sarf qilinaturg'on oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo'lig'a sarf etsak anqarib ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz va o'zimiz-da, dinimizda obro'y va rivoj topar. Yo'q hozirgi holimg'a davom etsak, din va dunyog'a zillat va miskinatdan boshqa nasabamiz bo'lmaydur". Dabdabali, hashamatli to'ylar katta mablag' talab qiladi. Ko'p oilalar bunday xarajatlarni qoplash uchun qarz olishlari mumkin, bu esa moliyaviy qiyinchiliklarga olib keladi. To'yni hashamatli qilish uchun ko'p tayyorgarlik va mehnat talab etiladi. To'ylarda ko'p miqdorda oziq-ovqat, suv, elektr energiyasi va boshqa resurslar isrof qilinadi. O'rtacha yoki kam daromadli oilalarni to'y qilishida o'zlarini majburiy his qilishlariga olib keladi va bu esa ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi. Ba'zan asosiy e'tibor tashqi ko'rinishga, moddiy tomonlarga qaratiladi. Ammo so'ngi yillarda xalqimiz orasida to'y marosimlaridagi asosiy e'tibor yoshlarning baxtli bo'lishiga emas, quda tomonning to'y uchun qilgan xarajati miqdoriga qaratilmoxdagiki, bu jamiyatning ma'naviy muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Birgina to'ylarimizda yllar davomida kutilgan orzu-havasning yaxshi niyatda amalga oshirilayotganidan ko'ra, xalq orasida obro' talashishga aylanib qolgan. Natijada so'ngi kunlarda milliy to'y an'analarimizga aloqasi bo'limgan, ayrim qo'shtirnoq ichidagi urf-odatlarga mos bo'lish uchun daromadlariga yarasha emas, balki qarz olib bo'lsada, katta sarf-xarajat qilishmoqda. Buning oqibatida to'ydan keyin kelib chiqadigan kelishmovchiliklar, iqtisodiy muammolar sabab oilalardagi konfliktlarning kelib chiqishi hattoki yoshlarmizni ajrashib ketishlariga ham sabab bo'lmoqda. Ba'zida oilani bir necha yillar davomida qarzdorlik sabab qiynalib yashashga majbur qilmoqda. Bunday salbiy illatlarga barham berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qaroriga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman va



shahar Kengashlarida, shuningdek fuqarolar yig‘inlarida to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o’tkazilishini tartibga solish masalalari bo‘yicha komissiyalar tuzilib, 2019 yil 14 sentabrda “TO‘YLAR, OILAVIY TANTANALAR, MA’RAKA VA MAROSIMLAR O’TKAZILISHINI TARTIBGA SOLISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA” O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATI KENGASHINING QO‘SHMA 2736-III-SON QARORI qabul qilingan. Yuqoridagi mavjud vaziyatni inobatga olib, Mazkur qarorda turli xil ko‘ngilsizliklar, salbiy oqibatlarni oldini olish maqsadida to‘y hashamlar va boshqa oilaviy tadbirlarning tartibga solinishi, muqaddas dinimiz asosida aniq belgilab ko’rsatilgan. Yuzaga kelgan vaziyatni e’tiborga olib diniy ulamolar, imom-xatiblar aholi orasida marosimlarda isrofgarchilikka yo'l qo'yib bo'lmasligi, islom dinida to‘ylar va ma'rakalarda katta sarf-xarajatlar oqlanmasligi haqida tushuntirish ishlarini olib bormoqda. Shuningdek qarorda to‘y marosimlarining katta xarajat talab etadigan har bir qismiga to'xtalib, asosiy e'tibor to‘ylarning ixchamligi va kamxarajatli qilib o’tkazilishiga qaratildi. Ta’ziya marosimlari uchun ham katta mablag’lar sarflash va bir necha oylab aza tutish qoralanadi. Behbudiyning “Bizni kemiruvchi illatlar” maqolasida ta’ziya marosimlaridagi keti uzilmaydigan hafta kunlariga baxshlangan tadbirlaru uzoqdan uzoq tutgan azani qatiq tanqid ostiga olgan. *Ba’zi bir xalqlarni misol qilib, ular ishdan qolmaslik uchun hattoki ba’zan o’likni kechasi manziliga qo’yadurlar, biz bo’lsak, o’luk va to’y uchun haftalar, hatto, oylar ila ishdan qolurmiz. Holbuki, shore’i a’zam, payg’ambari akram sallollohi alayhi vasallam hazratlari o’lganni tez ko’mub va ko’mgandan so’ngra tez tarqalib, ishga ketmoqg’a va o’lukxona xalqini uch kundan ziyoda ta’ziya tutmasg’a, qaro kiymasg’a, kir, falokat bo'lmasg’a amr etarlar-* mazmunidagi fikrlarini ham keltirib o’tgan.

Mahmudxo’ja Behbudi yosh avlod uchun vaqtini qadrlashga, uni mazmunli va kerakli ishlarga sarflashni o’ziga xos targ’ibot sifatida qaragan. Vaqtini to’g’ri



boshqarish orqali shaxsiy va kasbiy maqsadlarga tezroq va samarali erishishi mumkin. Behbudiy yoshlarimizni vaqtini qadrlash, ilm olish, foydali sihlar bilan shug'ullanish, mol dunyoga o'ch bo'lmaslik, baxt pulga bog'liq emasligi, zarali narsalarni tark etish, Vatan taraqqiyoti uchun kurashishga undayd. Imom Buxoriy aytganidek, "Ilmdan o'zga najot yo'q". Jamiyatimizda keng tarqalgan va rivojlanishimizga to'sqinlik qiluvchi bizni kemiruvchi illatlardan qutulsak, taraqqiy etgan davlatlar qatoriga qo'shilamiz. Shuni tushunishimiz kerakki, bu dunyo faqat mol-dunyo va boylikdan iborat emas. Mahmudxo'ja Behbudiy keltirganidek: "...to'y va ta'ziyaga sarf qilinaturgon oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va-din yo'lig'a sarf etsak, anqarib ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz". Jadidlarimizning bir yo'ldagi maqsadlari, ya'ni xalqni ilmi qilishlik bo'lgan. Behbudiyning "Bizni kemiruvchi illatlar" maqolasida ham aynan xalq minglab mashaqqatlar orqasidan topayotgan daromadlarini ikki soatlik shonu shuhratni deb barbod qilmaslik, aksincha bir umrga xizmat qiladigan bilim olishlik, kasb o'rghanishlik kabi ishlarga sarmoya qilishlikni afzalligini ta'kidlagan. Bugun har birimiz shu kabi jamiyatimizda tezlik sur'atida "rivojlanayotgan illatlar" ga befarq bo'lmasdan, ularni oldini olishni o'zimizdan boshlasakda o'sib kelayotgan yosh avlodga o'rnak va namuna bo'la olamiz. Bu borada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida bu kabi g'oyalarni singdirilib borishimiz, ozligimizni anglatadigan ma'naviy-madaniy boyliklarimizga tupur etkazmaslikka chorlashimiz zarur. Zero Behbudiy bobomiz ham bejizga bu mavzuda to'xtalib, qattiq tanqid ostiga olmaganlar.

Foydalangan adabiyotlar :

1. Mahmudxo'ja Behbudiy. Bizni kemiruvchi illatlar. Oyna jurnali, 1915. B-338.
2. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy [Matn]: risola./Z.Abdirashidov. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. 60- b.
3. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. - Toshkent: O'qituvchi, 2002.



4. Qosimov B. Mahmudjo‘ja Behbudiy (Tanlangan asarlar). – Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
5. Xayrullayev M. Ma’naviyat yulduzlari. – Toshkent:. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
6. Д. Алимова, Д. Рашидова. Махмудходжа Бехбудий и его исторические возрения. Т. , «Маънавият», 1998.

Internet saytlari:

1. ZIYOUZ.COM
2. LexUzon-line